

SURXONDARYO VILOYATI TUPROQ-IQLIMI SHAROITIDA YERYONG‘OQNI YETISHTIRISH ISTIQBOLLARI

Qo‘chqorov Astonaqul Musurmonqulovich

TDMAU Agrobiologiya fakulteti “O‘simliklar himoyasi, agrokimyo va agrotuproqshunoslik” kafedrasida dotsenti v.b, b.f.n

Qurbanov Abduraim Narbayevich

TDMAU Agrobiologiya fakulteti “O‘simliklar himoyasi, agrokimyo va agrotuproqshunoslik” kafedrasida assistenti

Аннотация

Bugungi kunda dunyo miqyosida tobora o‘rib borayotgan aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta‘milash dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi. Ushbu maqolada ham mazkur dolzarb masala bo‘yicha mamlakatimizda va Yevropa Ittifoqida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida ma‘lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Yeryong‘oq, Surxondaryo viloyati, tuproq-iqlim sharoiti, navlar, yetishtirish, ekish muddati, ekish sxemasi, kasalliklar, zararli hashoratlar, qarshi kurash choralari, hosildorlik, iqtisodiy samaradorlik, eksportbop va x.k.

Аннотация


Сегодня безопасность пищевых продуктов является неотложной проблемой для растущего населения мира. В данной статье также представлена информация о мерах, принимаемых в нашей стране и Европейском Союзе по этому неотложному вопросу.


Ключевые слова: арахис, Сурхандарьянская область, почвенно-климатические условия, сорта, выращивание, сроки посадки, схема посадки, болезни, вредители, меры борьбы, урожайность, экономическая эффективность, экспортный потенциал и др.

Annotation

Today, ensuring food safety for the rapidly growing global population is considered a pressing issue. This article also presents information about the measures being implemented in our country and in the European Union regarding this urgent matter.

Key words: Population, harmful organisms, food safety, plant protection, pesticides, residual contamination level, environmentally friendly products, biological method, bioproducts, etc.






Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida tobora o'sib borayotgan aholini xavfsiz ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda ta'minlash masaladir.


So'nggi yillarda mamlakatimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy asoslar yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4118-sonli "Yog'-moy tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 14 iyuldagi № 438-sonli "Respublikada moyli ekinlar yetishtirishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi qarorlar shular jumlasidandir.

Ushbu qarorlarda mamlakatda yog'-moy tarmog'ini rivojlantirish, aholi ehtiyojini yanada to'laroq qondirish maqsadida ishlab chiqarish hajmlarini oshirish va tayyor mahsulotlar assortimentlarini ko'paytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishiga qaramasdan yog'-moy tarmog'ini boshqarishning yagona tizimining yo'lga qo'yilmaganligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini nazorat qilish mexanizmining samarasizligi bilan bog'liq muammolarning mavjudligi ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirishga, investitsiyalarni jalb qilish va tarmoqning jadal rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi hamda hom-ashyo bazasining chegaralanganligi oqibatida tarmoq korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi 50 foizdan oshmayotganligi bayon etiladi. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasining oziq-ovqat havfsizligini ta'minlash bilan birga raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining eksport salohiyatini oshirish, aholini yil davomida uzluksiz ravishda barqaror narxlarda qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlash va qayta ishlash bo'yicha qator vazifalar belgilab berilgan.

Respublikamiz aholisini keng assortimentli arzon va sifatli o'simlik moyi bilan ta'minlash bilan birga hududlarning eksport salohiyatini oshirishda har bir ekologik iqlim-sharoitlar uchun mos ertapishar, serhosil, stress omillarga bardoshli, eksportbop navlarni tanlash, urug'chiligini tashkil etish, yetishtirishning resurs tejankor texnologiyasini ishlab chiqish hamda ishlab chiqarishga joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan Surxondaryo viloyatining tuproq-iqlimi sharoitidan kelib chiqib hududning iqtisodiy holatini yaxshilash uchun eksportbop mahsulotlar yetishtirish bilan birga tuproqning tabiiy unumdorligini qayta tiklash maqsadida g'alladan bo'shagan maydonlarda dukkakli ekinlardan yeryong'oq yetishtirish rejalashtirilgan, chunki dunyo dehqonchiligida tuproqning tabiiy unumdorligini tiklashda dukkakli ekinlardan foydalanish samarali





usullardan biri ekanligi ilmiy asoslardan boʻlib, ularning orasida yeryongʻoq iqtisodiy samaradorligi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun qishloq xoʻjaligi kuchli rivojlangan davlatlarda, jumladan Amerika Qoʻshma Shtatlarida ham almashlab ekish sxemasiga yeryongʻoq kiritilgan.


Bugungi kunda dunyoda yeryongʻoq yetishtirayotgan davlatlar soni 109 ta, shundan maxsulotning 82 foizini asosan 10 ta davlatlarda yetishtiriladi. 2023-yil yanvar holatiga koʻra dunyoda yetishtirilgan yalpi yeryongʻoq hosili - 50,2 mln. tonnani tashkil etgan. Eng koʻp miqdorda yeryongʻoq yetishtirgan mamlakatlar, jumladan Xitoy – 18,3 mln. tonna, yaʼni yalpi hosilning 36 %, Hindiston 6,6 mln. tonna (13,0 %), Nigeriya - 4,5 mln. tonna (9,0 %), AQSh va Sudan - 2,5 mln. tonnadan (5,0 % dan), Senegal va Birmada - 1,7 mln. tonnadan (3,0 % dan), Argentinada -1,3 mln. tonna (2 %), Gvineya va Tanzaniyada 1,2 va 1,1 mln. tonna (2,0 %) dan ortiq hosil olingan.


Oxirgi ikki yilda, Xitoy dunyodagi eng koʻp yeryongʻoq eksport qilayotgan davlat boʻlishiga qaramasdan Oʻzbekistonda yetishtirilgan yeryongʻoqlarni sotib olishga jiddiy harakat qilmoqda. Buning asosiy sababi Oʻzbekistonda yaratilgan navlar dunyo standartlariga mos kelishi bilan birga Xitoyda yetishtirilgan mahsulotlarga nisbatan ekologik tozaligidir.

AQSh qishloq xoʻjaligi vazirligi maʼlumotlariga koʻra, yeryongʻoq dunyoda yirik toʻqqizta oʻsimlik moyi olish uchun yetishtiriladigan ekinlar orasida beshinchi oʻrinni egallaydi.

Yeryongʻoq urugʻining 48-54 % yengil xazm boʻluvchi moy, 27 % gacha oqsil tashkil etib mazasi boʻyicha zaytun moyi bilan tenglasha oladi. Yeryongʻoq moyidan turli meva-sabzavot salatlari, konserva va margarin tayyorlashda keng qoʻllaniladi. Birgina qandolatchilik sohasida yeryongʻoq 60 dan ortiq mahsulotlari jumladan: isteʼmol moyi, shokoladlar, pechene, xolva, konfet, muzqaymoq va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda asosiy ingredientlardan biri hisoblanadi. Yeryongʻoq boshqa dukkakli va moyli ekinlarga nisbatan serdaromad va chiqitsiz ekin hisoblanadi, chunki yeryongʻoq hosilidan tashqari poyasi ham chorva uchun toʻyimli ozuqa boʻlib, qoramollar va qoʻy-echkilar tomonidan sevib isteʼmol qilinadi. Yeryongʻoq poyasida 11 % gacha oqsil, turli xil vitaminlar va minerallarga boy boʻlib toʻyimliligi boʻyicha klever va bedadan kam boʻlmaydi. 1 ga maydondan oʻrtacha 280-320 donagacha pichan pressi olinadi. Yeryongʻoq moyi ishlab chiqarish jarayonida ajratib olinadigan kunjarasining tarkibini 48 foizini oqsil va 8 foizini moy tashkil etadi. Bu esa boʻrdoqichilik va parrandachilikda bebaho oziqa hisoblanadi (Podgorniy, 1976).

Yeryongʻoq tuproqning unumdorlik holatini yaxshilashda ham oʻta muhim ekin hisoblanadi, chunki ildiz tuganaklarida yuzlab azotobakteriyalar mavjud boʻlib, havodagi






erkin azot hisobidan gektariga tuproqni 60-70 kg sof azotga, organik qoldiqlari bilan esa chirindiga boyitadi va shu bilan birga o'zidan begona o'tlardan holi toza va unumdor yer qoldiradi (Yormatova, 2005).


Tadqiqotlarning uslubiyati. Yeryong'oqning "Salomat", "Mumtoz", "Qibray-4" va "Lider" navlarining qimmatli xo'jalik-biologik belgilarini o'rganish va baholash bo'yicha tadqiqotlar ButunIttifoq O'simlikshunoslik ITIning ("Metodicheskie ukazaniya po izucheniyu mirovoy kolleksii maslichnykh kultur", Leningrad, VIR 1986) va O'simliklar Genetik Resurslari ilmiy-tadqiqot institutining (Moyli ekinlar jahon kolleksiyasini o'rganish bo'yicha uslubiy (Toshkent, 2010) qo'llanmalaridan, tajriba maydonlarida turli xil kasalliklar va zararkunandalarni o'rganish hamda ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish maqsadida monitoring kuzatishlarini olib borishda VIZR metodikasi (1985), Dement'eva M.V. (1985) va Xo'jaev Sh.T.(2004) uslubiy ko'rsatmalaridan foydalaniladi. Hosildorlikni aniqlash hamda olingan natijalarni statistik ishlash B.A.Dospexov (1985) usuli asosida amalga oshiriladi.

Natijalar. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida yeryong'oqning Surhondaryo viloyati iqlim sharoitida yuqori hosil beradigan navlarining joriy etilishi natijasida hosildorlik 1,5-1,8 martaga, sof daromad 55-60% ortadi. Surxondaryo viloyati qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini ko'tarish va hamkor investorlarni jalb qilish, aholi bandligi va qo'shimcha ish o'rinlari ochish uchun zamin yaratiladi. Hududning eksport salohiyatini ortishiga xizmat qiladi.

Yeryong'oqning Surhondaryo viloyatida har yili g'alladan bo'shagan maydonlarda mahalliy "Tashkentskiy-112" navi yetishtiriladi. Mahalliy "Tashkentskiy-112" navining o'rtacha hosildorligi 12-16 s/ga, 1000 dona urug'ining vazni 300-350 g, urug'ining shakli, rangi turli xil, dunyo standartlariga mos kelmaydi. Mahalliy "Tashkentskiy-112" navi 1952 yilda ButunIttifoq O'simlikshunoslik ITIning (VIR, Leningrad) O'rta Osiyo filialida hozirgi O'simliklar Genetik resurslari ITI olimlari tomonidan yaratilgan. Uzoq yillar davomida urug'chiligi olib borilmaganligi uchun hosildorlik va sifat ko'rsatkichlari pasayib bormoqda. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan sung O'simliklar Genetik resurslari ITI olimlari tomonidan yeryong'oqning eksportga mo'ljallangan serhosil, yirik urug'li (1000 dona urug' vazni 650-1100 g), bir xil shaklga ega bo'lgan 4 ta navlar yaratilgan va 2002 yil "Qibray-4", 2006 yil "Mumtoz" va "Salomat", 2017 yil "Lider" navlari Davlat Reestriga kiritilgan.

Respublikamizning janubiy hududlarida rayonlashtirilgan yeryong'oq navlaridan asosiy va g'alladan bo'shagan yerlarda yetishtirish uchun eng istiqbolli navlar tanlab olinadi. Ushbu navlarning yuqori hosil yetishtirish texnologiyasi yaratiladi va ishlab






chiqarishga joriy etiladi. Yeryong‘oq yetishtiruvchi fermer, dehqon va MChJ hamda esportyorlar uchun dala seminarlari tashkil etilib, ushbu navlarning istiqbolda birlamchi va nav urug‘chiligi tashkil etiladi.


Tadqiqotlar natijasida Surxondaryo viloyati iqlimi sharoitiga mos yeryong‘oqning “Qibray-4”, “Salomat”, “Mumtoz” va “Lider” navlari sinovdan o‘tkaziladi, asosiy va takroriy ekish muddatlari uchun mos, serhosil iqtisodiy samarali navlar tanlanadi. Ushbu navlar uchun maqbul ekish muddatlari, ekish sxemasi, ko‘chat qalinligi aniqlanadi. Yeryong‘oqdan yuqori sifatli, eksportbop mahsulot yetishtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyanoma chop etiladi va ishlab chiqarishga joriy etiladi.

Bugungu kunda yer yuzida aholi sonining tobora tez sur‘atlarda o‘sib borishi va oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning oshishi dukkakli va moyli ekinlar maydonlarining kengashiga olib kelmoqda. Chunki dukkakli ekinlar oqsilga boy bo‘lib, oqsil tiriklik energiya manbai hisoblanadi. Yer yong‘oq bir vaqtning o‘zida moy va oqsilga boy bo‘lib bevosita qurug‘ meva sifatida konservalar tayyorlashda, konditer mahsulotlari, margarin ishlab chiqarishda, atir-upa sanoatlari, tibbiyotda ishlatiladi. Yog‘moy ishlab chiqarish chiqindilaridan kunjara va shrot chorva mollari uchun konsentrat ozuqa hisoblanadi. Bugungi kunning shunday qimmatbaho ekinlari sirasiga yer yong‘oq ham kiradi. Respublikada **2022 yil** hosili uchun **asosiy** va **takroriy maydonlarda** yer yong‘oq yekini prognoz ko‘rsatkichlari **jami 34189** gektar etib belgilangan. Shundan **7402 gektar asosiy, 26787 gektar takroriy ekin** sifatida foydalaniladi. Ushbu maydonlardan **jami 86434 tonna** hosil olish rejalashtirilgan bo‘lib, shundan **19441 tonnasi asosiy, 66994 tonnasi takroriy maydonlar** hisobiga to‘g‘ri kelgan edi. Biroq, maydon birligidan olinayotgan hosildorlik reja bo‘yicha bajarilmadi.

Surxondaryo bo‘yicha viloyat statistika boshqarmasining ma‘lumotlariga ko‘ra yeryong‘oq ekilgan maydon jami 209,7 gektarni tashkil etmoqda. Vaholanki, Surhondaryo viloyati iqlimi sharoitida 1000 gektar maydonlarda yeryong‘oqdan yuqori hosil yetishtirish imkoniyatlari mavjud. Tajqiqotlar natijasida yeryong‘oq navlaridan Surhondaryo viloyati iqlimi sharoitiga mos, serhosil, eksportbop yangi va istiqbolli navlar tanlab olinadi hamda yetishtirish texnologiyasining asosiy elementlari takomillashtiriladi. Yeryong‘oqning iqtisodiy katta ziyon yetkazadigan zararkunandalari va kasalliklariga qarshi uyg‘unlashgan kurash choralari ishlab chiqiladi. Natijada xozirgi xolatga nisbatan hosildorlik 1,5-2 barobarga, mos ravishda sof foyda ham 1,5-2,0 barobarga ortadi.

Surhondaryo viloyatida asosiy va takroriy ekin sifatida yeryong‘oq yetishtiriladigan maydonlar anchaga kengayadi, aholi bandligi ta‘minlanadi va qo‘shimcha ish o‘rinlari





yaratiladi, mahsulotni qayta ishlovchi kichik korxonalar hom –ashyo bilan ta’minlanadi va hududning eksport salohiyati ortishiga xizmat qiladi.

Yeryong‘oq yetishtiruvchi MChJ, fermer, aholi tomorqa egalari uchun yeryong‘oqdan yuqori sifatli hosil yetishtirish bo‘yicha ilmiy va amaliy asoslangan tavsiyanomalar ishlab chiqiladi.

Hozirgi paytda 1 kg yer yong‘oq urug‘i qobig‘idan ajratilmagan holda o‘rtacha 15000 so‘m turadi. Yer yong‘oqdan gektariga o‘rtacha 40 s/ga hosili olinsa donidan 60 mln. presslangan poyasidan (300x30000 ming so‘m) 9,0 mln..so‘m daromad olish imkoniyati bor. Bundan tashqari, dalada qolgan azot, fosfor, kaliy va boshqa mikroelementlarga boy qobiq, po‘stloq, barg, poya, ildiz va ang‘iz qoldiqlari tuproqning agrokimyoviy va agrofizikaviy xossalarning yaxshilanishiga va tuproq unumdorligining sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, yeryong‘oq o‘simligini keng miqyosda yetishtirish va undan samarali foydalanish - oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash hamda ekologik barqaror qishloq xo‘jaligini rivojlantirish yo‘lida muhim omillardan biridir. Shu bois, ushbu o‘simlikni ilmiy jihatdan o‘rganish, zamonaviy agrotexnologiyalar asosida yetishtirish va qayta ishlash - dolzarb va istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Shu nuqtai-nazardan mazkur yo‘nalish bo‘yicha amaliy loyiha tadqiqotlari rejalashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4118-sonli “Yog‘-moy tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori. -Toshkent, 2019-yil 16-yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 14 iyuldagi № 438–sonli “Respublikada moyli ekinlar yetishtirishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi qarori. -Toshkent, 2025-yil 14 iyul.
3. Podgorniy V.N. Rasteniyevodstvo. –Moskva.:”Prosveteniye”, 1976, S.146-149.
4. Yormatova D.Yo. Moyli ekinlar. –Toshkent. “Mehnat”, 2005, 150-154 betlar

